



**NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARI**

Isoqova Yulduzoy Mahmudjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-kurs talabasi

e-mail: n3743044@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada o'quvchilarda nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalarning o'rni haqida so'z boradi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya vositalari, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar kirib kelayotgani natijasida darslarning sifati, ayniqsa, nutq faoliyatiga oid mashg'ulotlarning samaradorligi oshmoqda. Tadqiqot Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabi misolida olib borilib, real dars jarayonlari asosida kuzatishlar va tahlillar amalga oshirildi. Maqolada og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, ifodali gapirish, so'z boyligini oshirish kabi jihatlar o'rganilib, boshlang'ich ta'limda bu yo'nalishda qanday metod va texnologiyalar eng samarali natija berayotgani yoritilgan. Yakunda o'qituvchilar uchun bir qator amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq malakalari, metod va texnologiyalar, og'zaki nutq, yozma nutq, boshlang'ich ta'lim, raqamli vositalar, interaktiv metodika*

Аннотация: *В данной научной статье рассматривается роль современных методов и технологий в процессе формирования и развития речевых навыков учащихся. В условиях стремительного внедрения информационно-коммуникационных и цифровых средств в учебный процесс повышается эффективность уроков, особенно направленных на развитие речи. Исследование проведено на базе общеобразовательной школы №33 Довлатабадского района Наманганской области, с использованием наблюдений и анализа реальных учебных занятий. В статье рассмотрены аспекты развития устной и письменной речи, обогащения словарного запаса, выразительности речи, а также методы и технологии, дающие наилучшие результаты. В завершение представлены практические рекомендации для учителей начальных классов.*

Ключевые слова: *речевые навыки, методы и технологии, устная речь, письменная речь, цифровые инструменты, интерактивная методика.*

Abstract: *This scientific article discusses the role of modern methods and technologies in the development of students' speech skills. As information and communication tools and digital technologies are increasingly integrated into the educational process, the quality and effectiveness of speech-oriented lessons are improving. The study was conducted at School No. 33 in the Davlatobod district of Namangan region, based on classroom*



observations and analyses. The article explores aspects such as the development of oral and written speech, expressive language, and vocabulary enrichment, highlighting the methods and technologies that yield the best results. Practical recommendations for primary school teachers are provided in the conclusion.

Keywords: *speech skills, methods and technologies, oral speech, written speech, primary education, digital tools, interactive methodology.*

Bugungi tez o'zgarayotgan zamonda ta'limga qo'yilayotgan talablar ham tobora murakkablashib bormoqda. Endi faqat darsda ma'lumot berishning o'zi yetarli emas, balki o'quvchini fikrlashga, muloqotga, o'z fikrini erkin ifoda etishga, ya'ni nutqiy faol bo'lishga o'rgatish zarur. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi — bu o'quvchining nutqiy rivojlanishida poydevor qo'yiladigan davr bo'lib, bu jarayonda qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarning roli beqiyos. Shu boisdan ham hozirgi kunda nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar tobora keng qo'llanilmoqda. O'qituvchi endi shunchaki dars o'tuvchi emas, balki bolaning nutqiy tafakkurini uyg'otuvchi, fikrini shakllantiruvchi, til boyligini oshiruvchi shaxsga aylanmoqda. Mazkur tadqiqotda aynan shu yo'nalishga e'tibor qaratildi. Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabi misolida olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar va dars tahlillari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq malakalarini shakllantirish jarayoni chuqur tahlil qilindi.

- Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadi — boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy metod hamda texnologiyalar qanday natija berayotganini chuqur o'rganish, amaliy asosda sinab ko'rish va foydali tomonlarini aniqlashdan iborat. Biz ko'p hollarda an'anaviy metodlarga suyanib, bola nutqidagi zaifliklarni vaqt o'tib borib anglaymiz. Aslida esa, darsda zamonaviy uslublar, ayniqsa raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchini muloqotga jalb qilish, u orqali nutqini to'g'rilash, so'z boyligini oshirish, fikrini bog'liq va ravon ifoda qilishga o'rgatish imkoniyatlari bor.

- Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqotning obyekti — boshlang'ich ta'lim jarayoni, ya'ni 1–4-sinflarda olib boriladigan o'quv faoliyati. Predmeti esa — boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodlar, texnologiyalar va ularning samaradorligi.

- Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va yondashuvlar

Ushbu ilmiy ishni tayyorlashda men nafaqat nazariy adabiyotlarga, balki amaliy kuzatuv va dars jarayonlariga ham suyanib ish olib bordim. Gap shundaki, bola bilan ishlashda qog'ozdagi nazariyani to'g'ridan to'g'ri qo'llash har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, men aynan o'quvchi bilan ishlayotgan amaliyotchi o'qituvchilar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



tajribasiga, jonli dars muhitiga, real sinf holatlariga tayanishni maqsadga muvofiq deb bildim. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalandim:

1. Kuzatuv usuli

Dars jarayonida o'qituvchilarning qanday metodlardan foydalanayotgani, o'quvchilarning ularga munosabati, faol yoki sust ishtiroki, gapirishga bo'lgan qiziqishi kabi jihatlar jonli tarzda kuzatildi. Ayniqsa, og'zaki muloqotga undovchi topshiriqlarga bo'lgan reaksiyalar diqqat bilan tahlil qilindi.

2. Suhbat usuli

33-maktabdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan shaxsiy suhbatlar o'tkazildi. Ular o'z tajribalarida qaysi metodlar samarali, qaysilari unchalik emasligini ochiq-oydin aytib berishdi. Ba'zilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yaxshi yo'lga qo'ygan bo'lsa, boshqalar an'anaviy yondashuvni afzal ko'rmoqda. Bu tafovutlar tahlil qilindi.

3. Eksperiment usuli

Tajriba uchun 2 ta sinf tanlab olindi. Birinchi guruhda darslar odatiy metodlarda o'tkazildi, ikkinchisida esa raqamli texnologiyalar, interaktiv topshiriqlar, audio-video vositalar asosida olib borildi. Bu sinflarda 2 oy davomida bir xil mavzular ustida ishlanib, o'quvchilarning nutqidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

4. Tahlil va solishtirish

To'plangan ma'lumotlar asosida, aynan qaysi metod va texnologiyalar o'quvchilarning nutq faolligiga ko'proq ta'sir qilgani tahlil qilindi. Darsning boshidagi va oxiridagi holat, o'quvchilarning qatnashuv darajasi, yangi so'zlarni ishlatish ko'nikmalari solishtirildi.

Tadqiqot davomida aynan zamonaviy metod va vositalarning real dars sharoitida qanday samara berishini o'rganish alohida e'tiborda bo'ldi. Buning uchun bir necha texnologik vositalar va ilovalar tanlab olindi. Quyidagi texnologiyalar va usullar amalda sinovdan o'tkazildi:

1. Interaktiv doska va prezentatsiyalar

Dars davomida interaktiv doska yordamida topshiriqlar berildi. Masalan, bir rasm ko'rsatiladi va o'quvchidan shu rasm haqida og'zaki hikoya qilish so'raladi. Rasmni kattalashtirish, kichraytirish, undagi detallarni harakatlantirish orqali bola o'z so'zini yanada jonli va tasvirli ifodalay boshlaydi. Bu usulda ular o'z fikrini bog'liq va ifodali aytishga harakat qiladi.

2. Audio va video materiallar

O'quvchilarga kichik hajmdagi audio ertaklar tinglatildi. Shundan so'ng ularning mazmuni bo'yicha savol-javob, qayta hikoyalash, voqealarni davom ettirish kabi topshiriqlar bajarildi. Bu jarayon bolalarda diqqat, eslab qolish, so'z tanlash, gap qurish ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Raqamli o'yinlar (Quiz, Wordwall, LearningApps) Nutqni rivojlantirishga xizmat qiladigan interaktiv o'yinlar juda katta qiziqish uyg'otdi. Masalan, "Rasmni tanla va so'z bilan ifoda et", "Gapni to'ldir", "Qahramon ismini top va uni tasvirla" kabi topshiriqlar



orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga, gap tuzishga o'rgandilar. Ayniqsa, Wordwall'da yaratilgan "So'z zanjiri" o'yini juda katta faollik keltirdi.

3. Jamoaviy loyiha ishlari

O'quvchilarga kichik guruhlariga bo'lingan holda, hikoya yozish, voqea rivojini chizish vazifalari berildi. Har bir guruh o'z ishlanmasini doskaga joylashtirib, uni sinfdoshlariga og'zaki tushuntirdi. Bu esa bolalarda jamoada ishlash, fikr almashish, o'z g'oyasini tushuntirish ko'nikmasini shakllantirdi.

Texnologiyalarning o'quvchi nutqiga ta'siri Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalarning darsga kirib kelishi bola faolligini sezilarli darajada oshiradi. U ilgari jim o'tirgan, uyatchan bola ham ekrandagi topshiriqni bajarish uchun gapira boshlaydi. Ayniqsa, audio va video orqali ifodali so'zlash, ovoz ohangini to'g'rilash, iboralarni ko'chirmasdan o'zlashtirish holatlari ko'paydi. Dars oxirida o'quvchilarning o'rtacha faollik darajasi 42% dan 71% ga oshdi: yangi so'zlar soni bo'yicha nutq boyligi 1,5 baravarga ko'paydi, gap tuzishdagi xatolar kamaydi, o'z fikrini erkin aytishga intilish kuchaydi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan eksperiment asosida ikki guruhdagi o'quvchilarning nutq rivojlanish darajasi solishtirildi. Birinchi guruhda darslar an'anaviy uslubda, ikkinchisida esa yuqorida sanab o'tilgan zamonaviy metod va texnologiyalar asosida olib borildi. Har ikki guruh 3-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan bo'lib, umumiy soni 52 nafarni tashkil etdi. Dastlabki diagnostika Dars boshlanishida o'quvchilarga og'zaki nutq testlari (rasm asosida hikoya tuzish, so'zlar orqali gap tuzish, ertakni davom ettirish) berildi. Shunda quyidagi ko'rsatkichlar qayd etildi: 2 oy davomida olib borilgan eksperimentdan so'ng: Tahlil natijalari: 1. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan guruhda nutq faolligi ancha oshdi. 2. Interaktiv metodlar bola fikrlashini tezlashtirdi, ularni erkinroq gapirishga o'rgatdi. 3. Rasm asosida hikoya tuzish topshiriqlarida o'z fikrini mantiqiy tarzda ifoda etish qobiliyati ancha rivojlandi. 4. Audio-ertaklar asosida qilingan suhbatlarda bolalar o'z so'zini ifodali, ohangli qilishga harakat qilishdi. 5. An'anaviy metodda esa o'sish bo'lsa-da, sust va sekinroq bo'ldi.

Misol: 3-"B" sinfda o'tkazilgan "Rasmga qarab hikoya tuzish" mavzusidagi darsda interaktiv doskada qishloq manzarasi aks ettirilgan rasm ko'rsatildi. O'quvchilardan navbat bilan 3-4 gapdan iborat hikoya qilish so'raldi. Shahzoda ismli o'quvchi oldin quyidagicha gapirgan:

"Bu yerda bola bor. U o'ynayapti. Daraxt ham bor. It yugurayapti."

Eksperimentdan so'ng esa uning hikoyasi quyidagicha bo'ldi: "Bahor fasli edi. Bola yashil maysalar ustida to'p o'ynayapti. Uning orqasidan sodiq iti yugurib kelmoqda. Osmon ochiq, qushlar chug'urlamoqda."

Bu o'zgarish faqat darsda ko'proq gapirishga undash, jonli materiallar bilan ishlash va og'zaki fikr bildirishga yo'naltirilgan metodlar evaziga sodir bo'ldi.



Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqot davomida quyidagicha muhim natijalar aniqlandi. Ular oddiy sonlar emas, balki har bir raqam ortida real o'quvchi, jonli dars jarayoni va o'zgarayotgan nutqiy dunyoqarash turibdi:

1. O'quvchilarning nutq faolligi sezilarli darajada oshdi: Eksperimentda ishtirok etgan 2-guruhdagi o'quvchilarning 78 foizi darsda faol ishtirok etdi. Bu shuni ko'rsatadiki, bola gapirish uchun sharoit bo'lsa, imkon berilsa, u jim turmaydi – u o'zini ifoda etishga harakat qiladi. Ayniqsa, interaktiv o'yinlar, rasmlar, audio-hikoyalar orqali berilgan topshiriqlar bolalarni dadillikka undadi.

2. Og'zaki nutq boyligi kengaydi: Tajriba avvalida o'quvchilar o'rtacha 20–25 ta faol so'zdan foydalana olsa, eksperimentdan so'ng bu ko'rsatkich 40–55 tagacha yetdi. Bu esa nutq boyligining 2 baravarga yaqin oshganini anglatadi. Yangi so'zlar, iboralar, sinonimlar, sifatli gaplar – bular barchasi texnologiyalar orqali samarali o'zlashtirildi.

3. Mustaqil gap tuzish ko'nikmasi shakllandi: Rasm asosida yoki vaziyatga mos hikoya tuzish topshiriqlarida avval faqat 20% o'quvchi mustaqil gap tuza olsa, tadqiqot oxirida bu ko'rsatkich 53% ga yetdi. Demak, o'quvchilar endi shunchaki so'z yodlashmayapti – balki ularni mantiqiy bog'lab, gap tuza olayapti.

4. Darsga bo'lgan qiziqish kuchaydi: Oddiy metodda o'quvchi topshiriqni bajaradi-yu, ko'pincha biror iz qoldirmaydi. Biroq zamonaviy metodlar – ayniqsa, raqamli o'yinlar, audio-ertaklar orqali ishlangan darslarda o'quvchilar dars oxirigacha faol bo'lib qolishdi. Hatto darsdan keyin ham “yana bir marta o'ynaylik”, “ertakni qayta tinglasam bo'ladimi?” degan talablar bo'ldi.

5. O'qituvchilarning uslubiy ko'nikmalari boyidi: Tadqiqot davomida dars bergan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham yangi texnologiyalardan foydalanishni o'rgandilar. Ular darsni faqat “o'qituvchi aytadi – o'quvchi eslaydi” formatida emas, balki “birgalikda yaratiladigan nutqiy muhit” sifatida tasavvur qila boshlashdi. Natijada darslar jonlandi, nutqga asoslangan muhit paydo bo'ldi.

O'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirish – bu shunchaki darsning bir qismi emas, balki butun ta'lim jarayonining yuragi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida nutq ustida olib boriladigan ishlar – bolaga keyingi hayoti uchun zarur bo'lgan asosiy vosita: fikr bildirish, o'zini ifodalash, boshqalar bilan muloqotga kirishish, mantiqiy fikrlash va his-tuyg'ularni to'g'ri yetkazish malakalarini shakllantirib boradi. Tadqiqot davomida shunday bir haqiqatga yana bir bor amin bo'ldimki, zamonaviy metod va texnologiyalar nutq rivojida nihoyatda katta o'rin egallaydi. Ammo ularni qo'llashda biz shunchaki texnik vositalarga suyanmasligimiz, balki ularni o'quvchining tabiiy nutqiy ehtiyojini uyg'otishga xizmat qiladigan vosita sifatida ko'rishimiz kerak. Nutq bu – hayot. Uni hayotga yaqinlashtirmasdan rivojlantirish mumkin emas. Ayniqsa, zamonaviy metodlardan foydalanilgan guruhda o'quvchilarning nutq faolligida keskin o'sish kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, bugungi bola texnologiyaga yaqin. U planshetda ishlashni, interaktiv doskaga rasm chizishni, audio ertakni telefon orqali tinglashni tabiiy hol deb biladi. Demak, bizning vazifamiz – shu texnologiyalar orqali uni





muloqotga, fikr almashishga, jonli soʻzlashuvga jalb qilish. Masalan, oddiy audio ertak tinglatishning oʻzi bola nutqini faollashtiradi. Lekin bu yetarli emas. Eng muhimi – ertak asosida bolaga savol berish, voqeani davom ettirishni soʻrash, ertakdagi qahramonlarga oʻxshab gapirtirish. Ana shunda bola oʻylaydi, tasavvur qiladi, soʻz tanlaydi, fikr bildiradi. Bu esa nutqdir. Tajriba davomida eʼtiborimizni tortgan yana bir muhim jihat – bu oʻquvchilarning bir-biriga soʻz bilan taʼsir koʻrsata olishi, yaʼni jamoaviy nutqiy muhitning shakllanishi. Boshlangʻich sinf oʻquvchisi koʻp hollarda oʻz tengdoshining gapiga taqlid qiladi. Agar sinfda faollik, jonli muhokama, “men ham aytaman!” degan ruh boʻlsa – u sinfda nutq rivojlanadi. Buning uchun esa oʻqituvchi interaktiv uslublarni qoʻllashi, har bir bolaga gapirish uchun imkon berishi lozim. Masalan, Wordwall oʻyinida “rasmga soʻz top” topshirigʻini bajarayotganda baʼzi bolalar toʻgʻri javobni aytolmadi, lekin sinfdoshlaridan biri unga yordam beradi: “Bu qush emas, bu kaptar boʻlishi kerak”. Bu oddiy hol emas – bu til, bu nutqiy oʻzaro taʼsir. Bu esa sinfda jonli muloqot borligini koʻrsatadi. Yana bir kuzatuv shuni koʻrsatdiki, raqamli texnologiyalar oʻquvchilarning nutqiy motivatsiyasini oshiradi. Qiziqarli savollar, rasmlar topshiriqlar, ovoqli oʻyinlar ularni darsga jalb qiladi. Dars nihoyasida oʻquvchilar darsdan zerikkan emas, balki yana gapirmoqchi boʻlib qolishadi. Bu – haqiqiy natija. Biroq bu yerda bir muhim masalani unutmasligimiz kerak: texnologiya – bu vosita, maqsad emas. Har bir topshiriq, har bir metod oʻquvchining nutq faoliyatiga xizmat qilishi lozim. Bu usullar bolaning fikrlashini, eslab qolishini, soʻzlarni bogʻlab aytishini, mustaqil gap tuzishini rivojlantirishi kerak. Shu tadqiqot davomida men boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining texnologik savodxonligini oshirish zarurligini ham koʻrdim. Baʼzida oʻqituvchi interaktiv doskasi bor, lekin undan faqat yozuv yozish yoki rasm koʻrsatish uchun foydalanadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsam, olib borilgan tadqiqotlar, tajribalar, amaliy kuzatuvlar shuni koʻrsatdiki, boshlangʻich taʼlim bosqichida oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini rivojlantirish nafaqat muhim, balki zamonaviy taʼlimning ajralmas boʻlagiga aylangan. Bugungi kunda bolalar axborot olamida yashashmoqda – demak, ularning nutqiy rivojlanishi ham zamonaviy vositalar bilan uygʻunlikda kechmogʻi zarur. Tajribaviy ishlar shuni koʻrsatdiki, raqamli texnologiyalar (interaktiv oʻyinlar, audio-video materiallar) bolalarda nutqqa qiziqishni kuchaytiradi, ularni fikrlashga, mustaqil gap tuzishga, tengdoshlari bilan jonli muloqotga undaydi. Ayniqsa, topshiriqlar hayotiy, oʻyin shaklida, bolaga tanish obrazlar orqali berilganida nutq faolligi sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, oʻqituvchining bu jarayondagi oʻrni beqiyos. Texnologiyani ishga soladigan ham, uni oʻquvchi nutqiga xizmat qildiradigan ham – bu aynan ustozning salohiyati, pedagogik mahorati, bolaga boʻlgan mehridir. Shuning uchun ham oʻqituvchi har bir darsda nutqiy faoliyatni yoʻlga qoʻyishga alohida eʼtibor berishi lozim. Ushbu tadqiqot asosida quyidagi takliflarni kiritdim:

1. Boshlangʻich sinf darslarida har bir mavzuga mos nutqiy topshiriqlar bankini yaratish – bu oʻqituvchiga darsga tayyorgarlikda yengillik yaratadi, oʻquvchilarga esa muntazam nutqiy muhitni taʼminlaydi.





2. Texnologiyalardan foydalanish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun maxsus metodik qo'llanma ishlab chiqish – bu ularning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

3. O'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga oid monitoring tizimini yaratish – bunda o'quvchilarning har oyda yoki har chorakda nutqiy o'sishi baholanadi.

4. Sinflarda interaktiv doska, planshet, audio-kitoblar kabi vositalar bilan jihozlashga e'tibor kuchaytirish – bu texnologiyalarning amaliy qo'llanmasini oshiradi.

5. Nutqiy topshiriqlarni baholashda faqat to'g'rilik emas, balki jasorat, harakat, mantiqiy bog'liqlik kabi omillarni ham inobatga olish – bu o'quvchining dadilligini rag'batlantiradi.

6. Raqamli texnologiyalarni noto'g'ri va ortiqcha ishlatishdan saqlanish – har bir vosita o'z o'rnida, pedagogik maqsadga xizmat qiladigan tarzda qo'llanishi lozim.

Yana bir xulosam shundan iboratki, nutq – bu bola uchun nafaqat aloqa vositasi, balki o'zini namoyon etish, fikrlash, his-tuyg'ularni ifodalash vositasi. Uni shakllantirish esa faqat darslikdagi matn bilan emas, balki hayotiy topshiriqlar, zamonaviy texnologiyalar, jonli muloqot va mehrli ustoz orqali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, M. (2020). Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 2. Karimov, A. (2021). Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar: imkoniyat va yondashuvlar. Toshkent: Innovatsion pedagogika markazi.

3. Rasulova, D. (2022). "Nutqni rivojlantirishda interfaol usullar". Boshlang'ich ta'lim muammolari

4. Qo'chqorova, S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot malakasini shakllantirish. Namangan: Ilm ziyo nashriyoti.

5. Mavlonova, R. va boshqalar. (2019). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

6. Normurodova, Z. (2021). "Interaktiv texnologiyalarning o'quvchilar nutqiga ta'siri". Ta'lim va taraqqiyot

7. Qodirova, M. (2020). O'zbek tilshunosligi: nutq madaniyati va metodikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.

8. Azizxo'jayev, A. (2022). "O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda audio-vizual vositalarning roli". Innovatsion ta'lim